

## MARKAZIY OSIYODA BRONZA DAVRI SAVDO-SOTIQ YO‘LLARI TARIXI VA MADANIY JARAYONLAR

**O‘roqov O‘tkir Azamat o‘g‘li**  
*Termiz davlat universiteti 2-kurs  
magistranti, Termiz arxeologiya  
muzeyi ilmiy hodimi*  
*Email:utkirurokov873@gmail.com*

**Annotatsiya.** Maqolada Markaziy Osiyo axolisining bronza davrida ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy hayoti haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Qolaversa qadimgi savdo yo‘llari haqida ham ma’lumotlar bor.

**Kalit so‘zlar:** Bronza, Sopolli madaniyati, jarqo‘ton, qadimgi la‘l yo‘li, qadimgi firuza yo‘li.

### HISTORY AND CULTURAL PROCESSES OF BRONZE AGE TRADE ROUTES IN CENTRAL ASIA

**Abstract.** The article provides information about the socio-economic and cultural life of the people of Central Asia in the Bronze Age. In addition, there is information about ancient trade routes.

**Key words:** Bronze, Sopolli culture, jarkhaton, ancient mute way, ancient turquoise way.

### ИСТОРИЯ И КУЛЬТУРНЫЕ ПРОЦЕССЫ ТОРГОВЫХ ПУТЕЙ БРОНЗОВОГО ВЕКА В СРЕДНЕЙ АЗИИ

**Абстрактный.** В статье представлены сведения о социально-экономической и культурной жизни народов Средней Азии в эпоху бронзы. Кроме того, имеются сведения о древних торговых путях.

**Ключевые слова:** Бронза, сополиийская культура, жархатон, древний немой путь, древний бирюзовый путь.

**Kirish.** Bronza davrida O‘rta Osiyod hududida ko‘chmanchi chorvachilikka va o‘troq dehqonchilikka ixtisoslashgan madaniyat qatlamlari yashashgan. Bu

madaniyatlar aholisining etnik tarkibini o'rganishga antropolog va arxeolog olimlar doimo qiziqish bilan yondashishgan. O'rta Osiyo bronza davri aholisining etnik tarkibi xususida antropolog olimlar deyarli bir xil fikrda, ular bronza davrida Kaspiy dengizi bo'ylaridan to Pomirgacha bo'lgan hududlarda O'rta yer dengizi irqiga mansub aholi yashagan deb hisoblashadilar[1].

Bronza davri manzilgohlari aholisi har xil hunarmandchilik, to'quvchilik, kulolchilikni rivoj toptirishda zeb-ziynat buyumlarini yasash, qurilish sohasida katta yutuqlarga erishgan. Bronza davrida odamlar kulolchilik charxi va g'ildirakni kashf etdi. Shu tariqa dastlabki aravalar vujudga kelgan[2].

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Bronza davri tosh qurollardan bronza asboblarga o'tishning guvohi bo'ldi. Ushbu yangi texnologiya ovchilik, urush va qishloq xo'jaligida inqilob qildi va samaradorlik va mahsuldorlikni oshirdi[3]. Bugungi kunga kelib bronza davrining tarixnavisligi jahon va mamlakatimiz tarixchi va arexeologlari tomonidan yaxshi o'rganilgan. O'zbekiston hududidagi bronza davri yodgorliklarini o'rganishda S.P. Tolstov, Ya. G'ulomov, A. Asqarov, M.A. Itina, T.Shirinov, A.Sagdullaev, M.Shaydullaev, Yu.A. Zadneprovskiy, V.I.Sprishanskiy, A.I.Terenojkin, B.Matboboev, B.Abdullaev, U.Raxmonov va shu kabi olimlar ish olib borishgan va tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Ta'kidlab o'tilganidek O'zbekistonning janubiy sarhadlarida ya'ni Surxondaryo viloyati hududlarida ilk bronza davridayoq qadimgi dehqonchilik madaniyati shakllangan. U Sopollitepa va Jarqo'ton yodgorliklari misolida o'rganilgan[4]. Sopollitepa Surxondaryo viloyatidagi Sherobod cho'lida Amudaryodan 2,5-3 km sharqda Ko'hitang daralaridan biri bo'lgan Qaynarbuloq asosida vujudga kelgan Ulanbuloqsoyning yoqasida joylashgan. U Termiz shahridan 70 km shimoliy—g'arbdadir. Bu manzilgoh Sherobod cho'lini o'zlashtirish jarayonida, 1968 yilda topilgan. 1969—1974 yillarda uni A.Asqarov o'rgangan. Surxondaryo xududidan 20 dan ortiq yodgorlik topilgan.hozirga kelib Sopollitepa madaniyatining rivojlanishi 5 ta bosqichga bo'linadi;

1.Sopolli davri—miloddan avvalgi 2150—1900 yillar;

2. Jarqo‘ton davri—miloddan avvalgi 1900—1600 yillar;
3. Ko‘zali davri—miloddan avvalgi 1600—1500 yillar;
4. Mo‘lali davri—miloddan avvalgi 1500—1400 yillar;
5. Bo‘ston davri—miloddan avvalgi 1400—1300 yillar;

**Muhokama.** Sopollitepa protoshahar posyolkasi bo‘lib, rejalashtirilgan shahar xarakterini bildiradi, ehtimol Avesto qo‘lyozmalarida eslatib o‘tilganini aks ettiradi[5]. Arxeologik tadqiqotlar bu qadimiy jamoaning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy asoslarini ochib berdi[5]. Markaziy Osiyo bronza davrida Sharq va G‘arbni bog‘lashda hal qiluvchi rol o‘ynagan. Arxeologik topilmalar mintaqani Hind vodiysi tsivilizatsiyasi va Eron platosi kabi qo‘shni hududlar bilan bog‘laydigan savdo yo‘llarini ko‘rsatadi[6]. Jarqo‘ton hududiy jihatdan nafaqat O‘rta Osiyoda, balki o‘rta sharq mintaqasida o‘rganilgan bronza davrining eng yirik qadimgi shahar xarobasi edi. U hozirgi Termiz shaxridan chamasini 60 km shimolda, Sherobod daryosining qadimda Amudaryogacha suvi borib yetgan, hozirda esa suvsiz to‘qayzorga aylangan Bo‘stonsoy yoqasiga bo‘yida joylashgan[9]. Jarqo‘ton hududi katta maydonni hamda bir nechta muhim xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Olovli ibodatxonadan tashqari, kulollar uyi, qal‘a va keng qabriston mavjud. Bu qoldiqlar arxeologlarga Jarqo‘ton xalqining kundalik hayoti, ijtimoiy tuzilishi va diniy e‘tiqodlari haqida ko‘plab ma‘lumotlarni taqdim etadi[7]. Jarqo‘ton manzilgohida markazlashgan mahobatli ibodatxona o‘rganilgan. Ko‘pchilik tadqiqotchilar mazkur inshoot ilk zardushtiylik ibodatxonasi deb hisoblagan. Jarqo‘ton ibodatxonasi 1983-1987-yillar davomida A.A.Asqarov va T.Sh.Shirinov rahbarligidagi O‘zR FA Arxeologiya institutining Sherobod otryadi tomonidan o‘rganilgan[10]. Shuningdek bu arxeologik hudud dunyo olimlari nazaridan chetda qolmadi. Hususan bu yerda Sh.B.Shaydullaev va D.Xuff rahbarligidagi O‘zbekiston-Germaniya arxeologik ekspeditsiyasi Jarqo‘ton manzilgohida o‘z tadqiqotlarini olib bordi. Jarqo‘ton olov ibodatxonasi shaharning eng baland va markaz joyida qurilganligi aniqlandi[11]. Jarqo‘tonda ichki qurilish usuli ilohiylikka xos bo‘lgan va uch qismga bo‘lingan[12]. Arxeologik topilmalar orasida bronzadan

ishlangan pichoq dastasi topilgan, uning gulmixlari termirdan yasalgan. Bundan shunday hulosaga kelish mumkinki, Sopolli madaniyati aholisi termirni bilgan. Qolaversa katta patriarxal oila yashagan ko'p xonali uy qoldiqlari ham topilgan[12].

Hamma davrlarda bo'lganidek bu davrda ham savdo-sotiq yo'llari ham mavjud bo'lgan. Qadimgi lojuvard yo'li - O'rta Osiyoni Qadimgi sharq mamlakatlari bilan siyosiy va iqtisodiy hamda madaniy aloqalarida muhim o'rin tutgan qadimgi tranzit aloqa-savdo yo'li hisoblanadi. Turli ramziy nomlar (Oltin yo'li, Ipak yo'li, kumush yo'li, Nefrit yo'li va boshqalar) bilan ataluvchi aloqa-savdo yo'llari ichida davriy jihatdan eng qadimgisi hisoblanadi. Buyuk ipak yo'li paydo bo'lishidan taxminan 3-ming yilcha oldinroq mavjud bo'lgan[8]. La'l yoqutdan yumshoqroq, biroq, olovga bardoshli. Beruniy La'l madaniga quyidagicha izox bergan: "La'l o'zining rangi va jilvalanib turishi bilan yoqutga juda o'xshaydi, lekin qattiqligi jihatdan undan qoladi, shuning uchun bu mineralning qirralari tez sinib ketadi"[13]. Qadimda La'ldan faqat asl tosh sifatida zargarlikda ishlatilgan. y qismini tashkil etgan[5]. Feruza (yo'li) – Markaziy Osiyo hududida qadimdan konlari mavjud bo'lgan madandan biri hisoblanib, ushbu turdagi qimmatbaho toshdan yasalgan zebu-ziynat buyumlari arxeologik topilmalar ichida keng tarqalgan. Feruza qadimdan Sharqning eng yaxshi toshlaridan biri bo'lib kelgan[14]. Firuza - ming yillar davomida turli tsivilizatsiyalar tomonidan, ishlatilgan va qadrlangan shaffof bo'lmagan, ko'kdan yashil ranggacha bo'lgan qimmatbaho toshdir. Asli fors tilida *piruzeh* deb atalgan marvarid fors madaniyatida shunday ma'naviy qadriyatga egaki, uning nomi g'alaba, zafar va farovonlik ma'nolarini o'zida mujassam etgan[15]. G'arbiy Erondagi Deh Luran tekisligidan topilgan arxeologik topilmalar firuza birinchi marta miloddan avvalgi 7000 yillarda ishlatilganligini ko'rsatadi. Dafn etilgan joylarda topilgan firuza artefaktlarining miqdori ushbu mineralning qadimgi tsivilizatsiya an'alarida muhimligini ko'rsatadi. Ushbu artefaktlarning taxminiy yoshi to'g'ri bo'lsa-da, hech qanday ilmiy tadqiqot ularni biron bir aniq kon bilan bog'lamadi[16].

**Xulosa.** Yuqoridagi keltirilgan ilmiy dalillar shuni ko'rsatadiki, qadimgi sharqda madaniyat izlari ancha avval vujudga kelganligini anglatadi. Nafaqat bronza balki undan oldingi davrlarda ham insolar turli xil ma'danlar, qimmatbaho toshlar haqida ham bilimlari bo'lishgan. Bundan tashqari qadimgi sharqni g'arb bilan bog'lovchi turli xil savdo-sotiq yo'llari bo'lgan. Bu yo'llar faqatgina savdo uchun emas balki hududlarning bir birlari bilan aloqa qilish yo'llari ham bo'lgan. Firuza yo'li, la'l yo'li kabi savdo yo'llari O'rta Osiyoni o'sha paytda ham rivojlantirib kelgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- [1] Т.К.Ходжаев. Антропологический состав населения эпохи бронзы Сапаллитепа – Ташкент, 1977
- [3] Applied Science, 02 (82), 127-129 History of civilizations of Central Asia, v. 1: The Dawn of civilization, earliest times to 700 B.C. Person as author :Dani, Ahmad Hasan [39], Masson, V.M. [1]
- [2]<https://tarix.sinaps.uz/hodisa/eneolit-va-bronza-davri/>
- [4] <https://fayllar.org/8--maruza-bronza-davri-va-uning-organilishi.html>
- [5] Nazarov, U. O. (2020). Sapallitepe - the first sample of an old town in Uzbekistan. ISJ Theoretical &
- [6] <https://www.cambridge.org/core/services/aop-cambridge-core/content/view/7333E4851E081C61A3168FB961320D42/S0003598X00046718.pdf/central-asia-in-the-bronze-age-sedentary-and-nomadic-cultures.pdf>
- [7] ASKAROV, A., SHIRINOV, T, 1994, "The 'Palace', Temple and Necropolis of Jarkutan", Bulletin of the Asia Institute, 8: 13-26
- [8] O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
- [9] Ахмадали Аскарлов ЭНГ ҚАДИМИЙ ШАҲАР-Тошкент «МАЪНАВИЯТ» 2001й.
- [10] Аскарлов А.А., Ширинов Т.Ш.. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии, Samarqand, 1993 — 187 bet.

- [11] S.N.Djuraeva, I.S.Usmonov, A.M.Kurbonov, L.K.Azimova. Surxondaryo tarix sahnasida. O'zkitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2022, 288 b..
- [12] S.Juraeva. Surxondaryo viloyati ziyoratgohlari tarixi. O'zkitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2021, 224 b..
- [12]S.Juraeva. *Surxondaryo viloyati ziyoratgohlari tarixi*. O'zkitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2021, 224 b..
- [13] . Abu-Rayhon beruniy.Qimmatbaho javohirlar haqida bilimlar kitobi. Kitob alJavohir.fi ma`rifat Al-Javohir. Mineralogiya. O,,zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti.Toshkent (2017 yil).
- [14] Xamidov O., Kattayeva G. Markaziy Osiyoning bronza davri savdo va aloqa yo'llari// O'zMu xabarlar. Toshkent, 2023.-B.33-36.
- [15] Vinogradov A.V., Lopatin S.V., Mamedov E.D. (1966) The turquoise of the Kyzyl-Kum. Soviet Anthropology and Archeology, Vol. 4, No. 4, pp. 11–28, <http://dx.doi.org/10.2753/AAE1061-1959040411>
- [16] Hole F., Flannery K.V., Neely J.A. (1969) Prehistory and Human Ecology of the Deh Luran Plain: An Early Village Sequence from Khuzistan, Iran. University of Michigan Press. <http://dx.doi.org/10.3998/mpub.11395036>